

## USTOZ E'TIROFI QOG'OZGA KO'CHSA...

**Kazakova Gulasal Kuralovna**

*Urganch innovatsion universiteti o'qituvchisi*

Abdusaid Ko'chimovning "Kamtarlikning baland cho'qqisi" essesi ijodkor, mohir tarjimon Ma'ruf Jalil hayoti va ijod olami, chin insoniy xislatlarini tasvirlash, iste'dodli shoir ijodiy laboratoriyasi tadqiqiga bag'ishlangan. Universitetda o'tkaziladigan ijodiy uchrashuvlardan birida tanishishga muayassar bo'lgan bu ijodkorning shaxsiy xislatlari, shoirning dardli o'tmishi, alam va iztiroblari, ijod olami tasviri yorqin ranglar orqali chiziladi. Gapirayotganda jimjimador so'zlardan qochib, jaydari iboralardan foydalanishi, qo'pol-qo'rs so'zlarni nutqiga qo'shmasligi suhbatdoshga yoqib qolar, kamtar va tortinchoqligiga kishi havasing kelishi haqida so'z ketar ekan, A.Ko'chimov shoirning inson sifatidagi o'zgachaligini quyidagicha izohlaydi: "Suhbatdoshiga bo'lgan hurmat-e'tibori, yosh demay har so'zingni diqqat bilan, bo'lmay, oxirigacha sabr bilan eshitishi va jozibali tabassumi odamda ayriча muhabbat paydo qilarkan. Suvratidan uncha-munchaga ta'sirlanadiganga o'xshamasa-da, zehn solgan kishi ko'zlari o'tkir, quloqlari ziyrak shoirning siyratida kuchli hayajon, sirli g'uluvlar borligini sezishi mumkin edi"<sup>16</sup>. Shoir she'r aytayotganda esa A.Ko'chimov xayolidan "Katta daryolar sokin oqayotgandek ko'rinsa-da, tubida ko'z ilg'amas shiddat guvillab yotgan bo'ladi" degan ustozlar o'giti o'tadi. Shoirning hayot haqidagi fikrlari shu qadar mayin, hazin va betakror tuyg'ularga ko'milgan, bu hazinlik zamirida bahor chechaklari singari ochilayotgan go'zal va armonli orzular yaqin kelajakda muvashshax gullarga burkangan ko'yi tovlana-tovlana eshituvchilar qalbiga singib borardi.

Ushbu badiada Ma'ruf Jalil hayotining achchiq kunlari, ocharchilik yillarida oilasi boshiga tushgan tashvishlar, onasi va yosh singlisining vafoti bilan bog'liq voqealarning ichki dard bilan qog'ozga ko'chish jarayoni g'oyat ta'sirchan yoritilgan. Ijod jarayonidagi dardning muhimligi haqidagi qarashlar ayni haqiqat ekanligi ushbu esseda o'z isbotini topgan. Shoir she'rlaridan namunalar keltirish essenavis mahoratini, uslubiy o'ziga xosligini ta'minlashga xizmat qilgan. M.Jalil fe'l-atvorini yaxshi anglagan essenavis ijodkor haqida ma'lumot to'plashni zimdan amalga oshirar, agar o'zi haqida badia yaratilishi uchun manba to'playotgan ijodkor qarshisida ekanligini ustoz sezsa ruhsat bermasligi, yoki ko'pgina ma'lumotlarni sir saqlashi mumkinligini bilgan A.Ko'chimovga kasbi ustasi ekanligi qo'l keladi. Ya'ni ustozga bildirmasdan "ko'ngliga qo'l solish" orqali M.Jalilning bolalalik xotiralari, ijod olamiga kirib kelishi, ko'nglidagi dardu hasratlar qo'llariga qalam ushlashga majbur qilganligini anglash mumkin. Hatto birinchi she'ri singlisi Rohilaning bevaqt o'limidan keyin, qabrga qo'yib kelishidan keyin yozilganligini aytib o'tadi.

Ijodidagi yorqinlik ham, odamlarga mehribonlik ham, o'ychanlik va og'irlik, sobirlik va oqillik ham, aslida, shoirning tabiatida bor bo'lib, uning odamlarga hamisha yaxshiliklar

<sup>16</sup> Ko'chimov A. 3 jild. (Publitsistika) [Matn]: nasr / - T.: »Akademnashr«, 2021. 95-bet

istashi maxsus o'ylab qilingan ish emas. Bu shoir uchun yashash tarzi, hayoti, hayotning aynan o'zi edi. Uning she'rlari ham ana shu soflikdan, vatanga, xalqqa hadsiz sadoqat hissidan tug'ilgan durdonalardir. A.Ko'chimov ijodkor siymosini shunday tasvirlaydi: "U she'rlarida hayot dramalari, fojialarini shunday adolatli tarzda ifodalaydiki, natijada bunday she'rlar haqiqat va adolat jarchisi bo'lib tuyuladi, bedorlik va uyg'oqlikka undaydi. Satrlarda ehtiroslarning guvlab, to'lib-toshib kelayotgan shiddatli to'lqini lahzada beixtiyor sizni ham o'z oqimiga tortib qo'shib ketadi. Adolatsizlikka, ochko'zlikka, mahdudlikka qarshi bir isyon qo'zg'aydi ichingizda. Ona yurtga bo'lgan mehringizni oshiradi. Qisqasi, vatanparvarlik, jonfidolik, mardonavorlik Ma'ruf Jalilning ijodiy, axloqiy, insoniy dasturidir deyilsa adolatli bo'ladi..."<sup>17</sup>. Yuqoridagi xislat va fe'l-atvor M.Jalil ijodining boshqalardan farqlantiruvchi alohida jihati bo'lib, ijodining bosh tamoyili ham shu g'oyalarga yo'g'rilgan.

Bir qaraganda tushkun, sarxush qiyofada ko'rinsa-da, shoirga "yozmaslikning iloji bo'lmagandagina yozadiganlar" toifasidan deya ta'rif berilgan. Hamma yerda, hamisha – yursa ham, tursa ham ishlayotgan – she'r yozayotgan holatda uchratish mumkin ekan. Mayda-chuyda, arzimaday tuyulgan narsalardan ham ibratli fikrlar topib, salmoqli xulosalar chiqara olar, qanchalar ilhom bilan yozmasin, o'ziga o'ta talabchan bo'lganidan so'zlar ustida ishlashdan erinmas, chuchmallik, o'rtachalikdan qochar, qayta ishlash, tahrir qilish va ko'chirishdan charchamas bu ijodkor adabiyot maydonida betakror siymolardan hayot yo'llaridagi hikmatlarni ijodiga bevosita ko'chirganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Shular sabab Ma'ruf Jalilni essenavis ko'p va tez yozadiganlar qatoriga qo'shib bo'lmasligini aytadi. Bu shoirga badii muallifi tomonidan berilgan ham shaxsiy, ham ijodkorlik bahosi edi. Hamma bilan birday munosabatda, bir xil muomalada bo'la oladigan sabrli, e'tiborli va o'ta kamtarin kishilar ijodkorlar orasida uncha ko'p emasligi, shu fazilatlar bilan Mirkarim Osimga o'xshab ketishi haqida aytib o'tgan. Kamtarlik tog'ga qiyoslansa, bu ikki mehnatkash ijodkor shu tog'larning eng yuksak cho'qqisida turishini, Ma'ruf Jalil ham Mirkarim Osim kabi kamgap esa-da, ko'ngliga ma'qul odam bilan tez til topishar, birpasda suhbatdoshining e'tiborini qozonar, u bilan gurunglashgan har qanday odam rohat qilishini ta'kidlar ekan, adabiyotda ijod uyg'unligi yuzaga kelishida fe'l-atvor ham ahamiyati katta ekanligini anglash mumkin.

U suhbatdoshini hurmat qilish barobarida fikrlarini ham o'ta nozik sezgi bilan anglab oluvchi inson sifatida gavalantirilgan. Yana bir o'ziga xos fazilati bor edi Ma'ruf akaning: xushomadxo'r va foydaxo'rlarga duch kelganda ham jahlini tiya bilar, birovni yomonlamas, bezorlik bilan "yaramas" deb qo'yardi, xolos. "Xudoyim shu bandasiga insof bersin", – degani edi bu. Hamisha hamdardlik chechaklari yashnab turguvchi munosabatlarida rayhonlar hid taratib turgandek bo'lardi go'yo – yolg'on, dabdaba, jimjima yo'q edi. Ma'ruf Jalil qoldirgan boyliklar ichida "Kamtarinlik" deyilmish yana bir xazina ham borki, bu xazina hali ko'p dillarni maftun etadi, hayratga soladi, odob maktabi vazifasini o'taydi. Ijodkor sokin oqadigan daryo singari kamtarin, ammo ijodi g'oyat jo'shqin va yuksak pafosli shoir, badiiy saviyasi baland tarjimon edi.

<sup>17</sup> Ko'chimov A. 3 jild. (Publitsistika) [Matn]: nasr / - T.: »Akademnashr«, 2021. 108-bet

Xalqimizda yoshi ulug'larni ziyorat qilib, piru badavlat otalar duosini olish – ko'ngilga yorug'lik sohadigan savobli ish, qariyalarni qadrlash, ustozlar o'g'itini olish beqiyos qadriyatlardan hisoblanadi. "Dilkash lahzalar" esesida ana shu udumlarning o'ziga xos ko'rinishiga guvoh bo'lamiz. Abdusaid Ko'chimov, Muhammad Ali, Pirmat Shermuhammedov yozuvchi Pirimqul Qodirov xonadoniga tashrif buyurishadi va adib xonadonida ustoz va shogirdlar o'rtasida farahli bir suhbat o'tkaziladi. Esseda muallifning maqsadi faqat keksa ustoz ziyorati emas, birinchi navbatda uning shaxs sifatidagi siymosini kashf etish, qalb kechinmalarini tasvirlash ekani oydinlashadi. Adibning tashrif paytidagi hol-ahvoli, ruhiyatini aks ettiruvchi portretini chizar ekan, toliqish alomatlari sezilsa-da, ijodga ishtiyoqi avvalgidan baland ekanligi qayd etiladi. Ijodkorning ko'ngil oynasi, qalb haroratini namoyon qiluvchi ko'zlar chizmasiga urg'u beradi. Suhbat jarayonida yozuvchining buyuk sarkarda Amir Temur shaxsiga o'zgacha hurmati, tarixiy faktlarning bilimdoni, ulug' millatimiz o'tmishiga bo'lgan yuksak e'tibori, ajdodlar qoldirgan boy merosga bo'lgan mas'uliyati, tarixiy asarlar muallifi sifatidagi o'zligi namoyon bo'la boradi. Bu o'zlikning asosini ajdodlarga bo'lgan yuksak ehtirom, vatanparvarlik, fidoyilik, yuksak ma'naviyat, chin insoniylik kabi fazilatlar tashkil etishi oydinlashadi.

Adibning tariximizni yaxshi bilishi milliy o'zligimiz, tariximizni yo'q qilishga qaratilgan siyosat, Temur faoliyati va shaxsi talqinidagi xatoliklar, turli davrlarda Amir Temur shaxsiga qarash hukmron mafkura ta'siri ostida yuzaga kelganligini asosli izohlashida ayon bo'ladi. Muallif yozuvchi siymosini yaratar ekan, uning tarixiy romanlar ustasi ekanligidan kelib chiqib suhbat o'zani tarixiy voqelikka ko'chishini badiiy asoslagan. Tarixga oid qiziqarli faktlarga asoslangan suhbatda adibning tarixiy asarlar yozish uchun bilim va ijodkorlik salohiyati yetarli ekani hamda ijodkor asarlari orqali tariximizning hali ochilmagan qirralarini yuzaga chiqarish vazifasini muvaffaqiyatli ado qilganligining guvohi bo'lamiz. Tarixiy manbalar asosida tashkil etilgan suhbatning yuqorida qayd etilgan badiiy-ma'rifiy vazifalarini qayd etish lozim. Jumladan, Amir Temurning makedoniyalik Iskandar yoki rimlik Yuliy Sezarga o'xshatilishi asossiz ekanligi, bundan tashqari Temurning sarkardalik strategiyasi haqida gap ketadiki, aksariyat g'alabalari va qudratli qo'shin sohibi bo'lishini qiyosiy tahlilga tortgan: "O'z askarlarini ovchi itlarga mengzagan Chingizxon ularni faqat talonchilik hisobiga yashashga, urushdan olingan o'ljalari bilan boyishga o'rgatgan. Amir Temur esa navkarlarini xuddi o'zi singari inson farzandlari deb bilgan, ularga muntazam oylik maoshlari tayinlagan. Harbiy yurishlar paytida askarlarni 'ukulka" deb ataladigan qo'shimcha maosh bilan rag'batlantirgan. Boyazid bilan bo'lgan jang arafasida barcha sipohiyarga 7 yillik maoshlari oldindan berilgan ekan"<sup>18</sup> tarzidagi tarixiy haqiqatlarni bayon etuvchi hikoyasini keltirib, vatanimiz tarixini xolis yoritishdagi kuyunchakliklarini ta'kidlaydi.

Yozuvchi faktlarni eslabgina qolmay, har biriga o'z fikr-mulohazalarini ham bildirar, xotira hofizasi kengligi, besh yuz, ming yil burungi voqealar, voqealarning oy va kunlari, joylari, son-sanoqsiz ishtirokchilarining ismi-shariflarini adashmay aniq-tiniq aytishlari kishini

<sup>18</sup> Ko'chimov A. 3 jild. (Publitsistika) [Matn]: nasr / - T.: »Akademnashr«, 2021. 220-bet

hayratga solarli darajada bo'lib, o'z kasbini sidqidildan sevgan, yuragi Vatan ishq bilan limmo-lim haqiqiy o'zbek farzandigina o'tmish yuksakliklaridan bu darajada entika bilishi, hayajon bilan so'zlay olishi, ta'sirli asar yoza olishi mumkin.

Shuningdek, ijodkorning rafiqalari Sofiya opa bilan hayot yo'llarining birlashishi, urushdan keyingi og'ir yillarda yosh oilaning boshiga tushgan tashvishlarni yengish oilaparvar bekaning sabru qanoatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lganligi, ellik besh yildan buyon Pirimqul Qodirovdek asl so'z san'atkori bilan birga nafas olib kelayotgan, yaxshi-yomon kunlarda hamisha yonma-yon yurgan fidoyi va sadoqatli ayol timsoliga ham tavsif berib o'tiladi. 1952-yili yozuvchi va uning rafiqasi Moskvaga jo'nab ketishadi. Pirimqul Qodirov aspiranturada, ayollari Moskva texnologiya institutida o'qib yurgan paytlar tasvirlanadi. Turmush o'rtog'ining Moskvaga o'qishga ketishini "Uch ildiz" romanidagi Gavhar nomli obrazda sal o'zgartirib tasvirlaganligini, shu bilan o'z boshidan o'tkazganlarini, Mahkamning boshidan kechirgan iztiroblari xuddi o'z taqdirida ro'y bergan haqiqatlarga asoslanganligi keltirib o'tiladi: "Faqat Mahkamdan farqli o'laroq, men Toshkentdagi aspiranturadan hujjatlarimni qaytarib olib, tavakkalchilikdan Moskvadagi Adabiyot institutiga borganman"<sup>19</sup> deya xotirlaydi. Urushdan keyingi og'ir yillar yosh oila katta qiyinchiliklar bilan to'qnashadi. Sofiya aya oilaga un, yog', shakar, makaron kabilarni olish uchun nomerini kimyoviy qalam bilan kaftining ichiga yozib, besh-olti soatlab navbatda turar, qiyin kunlarning birida esa bildirmay onasi in'om qilgan oltin soatni sotib yuboradi, bolalarini bog'chaga joylash uchun o'sha yerga enaga bo'lib ishga kiradi, oila deb institutdan, studentlik baxtidan voz kechadi. "Moskvada o'zbek alifbosida yozishni biladigan mashinistkalar bo'lmagani tufayli o'zi mashinka qilishni o'rganadi, yozuvchining ilk asarlari va tarjimalarini tunlari uxlamay oqqa ko'chirib beradi! "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" romanlari besh-olti yillab bosilmay, taqiqqa uchragan o'tgan asrning saksoninchi yillarida esa o'zicha adolatsizlikka qarshi isyon sifatida olti kun tuz totmay ochlik e'lon qiladi..."<sup>20</sup>. Pirimqul Qodirov bu haqda "Ellik besh yillik umrning besh lavhasi" nomli esdaliklarida keltirib o'tib, qalb tuyg'ularini minnatdorlik bilan hikoya qilgan.

Kompozitsion qurilishi 5 qismdan iborat, voqealar ketma-ketligi xronologik tarzda yoritilgan "Buni hayot deydilar..." deb nomlangan esse yozuvchi Odil Yoqubovga bag'ishlangan. Esse syujetini tashkil etuvchi asosiy unsurlardan biri bo'lgan prologning keltirilishi esse badiiy qiymatini belgilovchi asosiy omil bo'lgan. Ya'ni Ijodkor Pirmat Shermuhammedov o'zbek prozasini yuksakda parvoz qilayotgan bir qush desa, Odil Yoqubov bilan Pirimqul Qodirovni uning ikki qanotiga o'xshatishi syujet asosini tashkil etuvchi motiv sifatida xizmat qilgan. Ularsiz o'zbek nasri ko'rimsiz, kambag'al va g'arib bo'lib qolishi haqidagi shogirdlarning ustoz haqidagi dilkash suhbat bilan esse voqealari boshlanadi. Ijodkorning shogirdlarni xonadonida qarshi olishi hazil-mutoyiba aralash xush kayfiyat bag'ishlar va bu kayfiyat suhbatdoshga tezda yuqardi. Odil Yoqubovning xalqi, ona Vataniga cheksiz muhabbati retrospektiv tarzda xotirlanadi. Yaqin kunlarda siyosiy jarayonda ro'y

<sup>19</sup> Pirimqul Qodirov. "Qadrim". G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. T.: 2007. 160-bet.

<sup>20</sup> Ko'chimov A. 3 jild. (Publitsistika) [Matn]: nasr / - T.: »Akademnashr«, 2021. 218-bet

berayotgan yangiliklar xususida suhbat jarayoni boshlanarkan yurt mustaqilligi, xalq farovonligi, el-yurt osoyishtaligi yo'lida olib borilayotgan xayrli ishlar ona Vatanni bundan-da yuksak cho'qqilarga erishishida dastak bo'lishiga ishonch bildiradi. Mustaqillik me'mori sifatida e'tirof etilguvchi Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimovni sohibqiron Amir Temur hazratlaridan keyin vatanga ozodlik, yurtga obodlik, raiyatga baxt-saodat olib kelgan mard rahbar, o'tkir siyosatchi, millatsevar yetakchi, qo'rqmas inson ekanliklariga o'zi ko'p bora guvoh bo'lganligini aytadi. 1980-yillar Moskvadagi Kremning Syezdlar saroyida xalq deputatlari majlisida o'zbek xalqining mashaqqatli og'ir mehnati, o'n olti-o'n yetti yoshida ellik-oltmishdan oshgan ayollar singari tarashaday qotib qizlik jozibasidan ayrilayotgan o'zbek qizlarining ayanchli qismati haqida; qullardan ham xor-abgor dehqonlarning g'arib hayoti to'g'risida, qaramlik, mutelik fojialari, zo'rvonlik kulfatlari to'g'risida so'zlaganligini eslarkan, adolatli rahbar – millatning baxti, nur sohib boshida charaqlab turguvchi quyoshi ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Odil Yoqubov xonadonidagi iliq suhbat ko'plab shogirdlarning ustoz o'g'itlari, hayot saboqlariga jonu dildan quloq tutish, ijod olami va undagi sir-sinoatlardan bahra olishdek baxtga intilish kabi tasvir etilgan. Bundan tashqari adib xonadonidagi iliq muomala, mehmondo'stlik, umr yo'ldoshi Maryamxon ayaning ustozga cheksiz hurmati, dasturxon atrofidagi xush kayfiyat dilni yayratishiga urg'u berilgan. Odil Yoqubov G'afur G'ulom yoki Said Ahmad singari xushchaqchaq, quvnoq askiyalar aytib barchani kuldirib yuradigan hazilkashlardan bo'lmasa ham, yoqimli va beg'ubor lutfi dilni yayratishi qalamga olingan. Asarlari mazmuniga yumor singdirilgan yozuvchilar tabiatan shu fe'l-atvor egasi ekanligi va ijodi mohiyatiga "kulgi" o'z ta'sirini ko'rsatganligini yaxshi bilamiz. Ammo O.Yoqubovning shaxsiyatidagi hazil-huzulga moyillik asarlarida deyarli sezilmaydi. A.Ko'chimov yozuvchi haqidagi xotiralarni oqqa ko'chirarkan, ustozning xuddi shunday yana bir qirrasini kashf etadi. "Maryam opa... hamma narsa bor-ku, ovvora bo'lmang deyishimizga qaramay, sizlardan aziz mehmon bormi, bir kepqopsizlar deb birida qazi, birida hil-hil pishgan qovoq to'la taqsimchalarni dasturxonga qo'ydi. Odil aka yana hazilga o'tdi: – Bu xonimga oltmish yildan beri tejamkorlikni o'rgatolmaymiz. Qazi deganni ham shunday qalin kesadimi? Qarab turinglar, birpasdan keyin karsonday-karsonday kosalarni lim-lim qilib sho'ruva ko'tarib keladi hali bu xotin!"<sup>21</sup> "Ey hotamtov xonim, Toshkenti azimda boshqa mehmonlaram bor"<sup>22</sup>.

Hayot murakkab, turli sinovlarga liq to'la bir xilqatki, yashash jarayonida uning sir-sinoatlarini bilib, taqdirida boriga shukur qilib boraveradi insoniyat. Faqat qo'ldan kelgancha o'tmish ulug'liklarini asrash, mustaqillikni ko'z qorachig'idek avaylab avlodlarga yetkazish uchun har bir fuqaro burchlidir. Aslida inson uchun berilgan sinovdir bu dunyo. A.Ko'chimov hayot deb atalmish bebaho ne'matning mohiyatini anglatishga urunish ilinjida essega "Buni

<sup>21</sup> Ko'chimov A. 3 jild. (Publitsistika) [Matn]: nasr / - T.: »Akademnashr«, 2021. 227-bet

<sup>22</sup> Ko'chimov A. 3 jild. (Publitsistika) [Matn]: nasr / - T.: »Akademnashr«, 2021. 238-bet

hayot deydilar...” deb nom qo‘ygan bo‘lsa bejiz emas. Zero esse mazmunidan umr o‘tkinchi, ezgu amallar boqiydir degan xulosa kelib chiqadi.

Boshqa badiialardan farqli o‘laroq bu esseda muallifning ustozlarga bo‘lgan cheksiz mehri, ehtiromi ham aks ettiriladiki, bu kitobxonga ma‘rifiy-tarbiyaviy ta‘sir etmasdan qolmaydi. Ushbu g‘oyalar mohiyatini yanada teranroq ochish maqsadida ustozning she‘rlari bag‘ishlov tarzida keltirib o‘tiladi.

Suhbat samimiyat ichida kechgan yillarni esga tushirarkan, nashriyotda, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasida, Yozuvchilar uyushmasida o‘tgan vaqtlar birin-ketin yodga olinadi. Odil Yoqubov bosh muharrir o‘rinbosari vazifasida xizmat qilgan yillarda G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyotining martabasi nihoyatda baland bo‘lgani, yiliga 80 – 90 nomda she‘riy va nasriy asarlar, ko‘plab tarjimachilik, adabiy tanqid va dramaturgiyaga oid kitoblar chop etilgani eslanadi.

Har bir asar syujetini konfliktisiz tasavvur qilib bo‘lmagani va konflikt badiiy asar ta‘sirchanligini belgilovchi bosh unsur hisoblanganidek esse qahramonining ichki dunyosidagi qarama-qarshilikning tasvirga olinishi esse badiiyatida asosiy motiv bo‘lib xizmat qilgan: “Umr – o‘tkinchi mehmon. Umr – daryo, oqib ketganini bilmaysan, – dedilar xo‘rsinib. – Birpasda saksondan oshib, holvaday pishib o‘tiribmiz. Albatta, shunday ulug‘ yoshga yetganga shukr deymiz, atrofda yuz berayotgan beqiyos o‘zgarishlarga qarab bir suyunsak, bolalarimizning, nevara-chevaralarimizning yayrab-yashnab kamolga yetayotganlarini ko‘rib bir suyunamiz. Ammo... Ammo inson bolasiga qarilikdan g‘urbati yo‘q. Birov bilan ulfatchilik qilolmasang, uzoqqa yurolmasang, qittak-qittak otib, yoshlikdagiday ko‘cha-ko‘yda qiz-juvonlarga gap tashlolmasang, har kuni taningning o‘n joyi simillab og‘rib tursa. Qamishday o‘sib-o‘sib, bo‘yraday yerga to‘shalib yotsang... Agar bitta talabgor topilganda, qarilikning o‘ttiz yilini yoshlikning o‘ttiz daqiqasiga jon-jon deb almashtirgan bo‘lar edim”. Bu ta‘rif ijodkor ichki dunyosidagi qarama-qarshilikning in‘ikosi sifatida ijodkor xarakteridagi ojiz jihatlar bilan kuchli tomonlarning kurashi tarzida namoyon bo‘ladi. A.Ko‘chimov adibning hazilomuz aytgan mana shu so‘ziga javoban keyinroq “Ustozning deganlari” nomli she‘rini yaratadi. She‘rni o‘qiganda adibning hozirgi ruhiyati yanayam tiniqroq ko‘z oldimizga keladi.

Sakson to‘rt yoshida “Osiy banda”dek beqiyos romanni bitirib, yana “charchayman”, “hayotimning qancha-qancha kunlari, oylari behuda ketganini o‘ylab vujudim zirqiraydi”, “bekor ketgan fursatlar o‘chini olgim keladi, kunu tun qimirlamay o‘tirib yozsam deyman”, “ammo qari ot chortoqqa yaramaydi”, “alam qiladi” deya nolish taajjubli va hayratli, bir tarafdin havasli ekanini keltirib o‘tadi. Hassos adibning armonli so‘zlari ta‘sirida ustozning yuzlariga tikilibroq razm solgan kishi manglayidagi chiziqlar qalinlashganini, bo‘yi xiyol egilib, yelkalari bo‘rtibroq turganini; sochlari ham siyraklashib, oqlari ko‘paygandek tuyulsada bu qarilik alomatlari emas, aksincha, yetuklik nishonalari ekanini, ustoz yanayam ulug‘vor, basavlat, donishmand qiyofaga kirganini ko‘rishi, “Tengdoshlar”, “Bir feleton qissasi”, “Muqaddas”, “Billur qandillar”, “Qanot juft bo‘ladi”, “Ko‘hna dunyo”, “Adolat manzili”day bebaho asarlar muallifi qarishi mumkin emasdek tuyulishini ta‘kidlaydi muallif.

Suhbat jarayonida “Osiy banda” romani yaratilishi uchun “turtki” yoxud “ta’sir” to’g’risida gap ketarkan, ustoz adabiyotda vujudga kelgan eng sara asarlar aslida qaysidir “turtki”dan keyin dunyoga kelganligini, lekin bu roman uchun biron ta’sir emas, ijodkorning hayotda ko’rgan va bilgan, eshitgan voqealari asos bo’lib, xalq ichida bor insonlar esa qahramon sifatida tanlanganligini aytadi. “Turtki” O.Yoqubov fikricha, adib ruhoniyyatida uzoq vaqtlardan buyon to’lqinlanib yotgan tuyg’ularni tuyqusdan bo’ron kabi qo’zg’atib, junbushga keltiruvchi kuch, mana shu kuch ta’sirida yozuvchi dildagilarni qog’ozga to’kib solmaslikdan o’zga chora topa olmasligi haqida aytarkan, adabiyotshunoslar “ilhom parisi” deb ataydigan bu hodisot o’zida hech bo’lmaganligini, bunday oniy lahzalarga kamdan-kam duch kelganligini ta’kidlaydi. “Uzoq o’ylab, miyada pishitib, ma’lum bir to’xtamga kelmaguncha stolga o’tirmayman. Uncha-muncha “turtki” o’rnimdan qo’zg’atolmaydi... “Osiy banda” ham ko’p yillik kuzatishlarimning bir bo’lagi. Qahramonlarning barchasi – yaqin o’tmishda o’zim ko’rgan, suhbatlashgan, ulfatchilik qilgan, dardlashgan kishilar. Ularning ayrimlari hayotdan ketgan, ayrimlari tirik. Asarda eng katta rahbardan to eng quyidagi mayda qorovulgacha – hammasi aslida osiy banda ekani, qayerdadir xatoga yo’l qo’yishi, qayerdadir savobli yumushlarga bosh bo’lishi, qayerdadir fitnalarga aralashib qolishi mumkinligini baholi qudrat tasvirlashga harakat qilyapman... Bir vaqtlar shonu shuhrat nurlariga belangan, keyinchalik bosar-tusarini bilmay adashgan, oxir-oqibat afsus-nadomatda ich-etini yeb ado bo’lganlarni ko’rganda achindim, yuragim ezildi. Yozuvchilar uyushmasida ishlagan yillar ham ulkan dorilfunun bo’ldi”<sup>23</sup>. Shu hayotiy tamoyillar asosida “Osiy banda” – inson ruhiy olamida bo’kib yotgan osiylik iztiroblari to’g’risidagi kitobni yaratganligini aytib o’tadi. Yozuvchining nasrdagi yutuqlarida ijoddagi ilhomdan ko’ra hayotiy tajriba, kuzatishlar orqali orttirilgan tasavvur hosilasi yetakchilik qiladi. Bunda yozuvchining voqelikka bo’lgan ongli munosabatini ham ilg’ash mumkin.

Suhbat davomida yozuvchining qahramon yaratish imkoniyati faqat ko’rgan, o’zi bilgan voqealar asosida emas, ijodkorning tasavvur imkoniyatlari, tinimsiz izlanishlari asosida yaratilishi mumkinligi haqidagi ijod mashaqqatlarini ham yozuvchi nazardan chetda qoldirmaydi. Ya’ni yozuvchi o’zi boshidan kechirgan voqealar asosida asar yaratsa mukammal asar darajasiga chiqishi mumkin fikridan farqli, tasavvur doirasi ham muhim hisoblanishini ta’kidlaydi. Mirzo Ulug’bek, Beruniy, Ibn Sino, Ali Qushchi singari O’rta Osiyoning buyuk allomalari hayoti va fojiali taqdirini aks ettiruvchi obrazlarni ham yaratdiki, bular yozuvchining beadoq tasavvuri mevalaridir. Ijodkor hayotni kuzatar, diqqatini jalb etgan voqealarni tafakkur olamidan o’tkazar, ularni qayta tashkil qilib jonli hayot shaklida, badiiy umumlashma tarzida obraz yaratganligining guvohi bo’lishimiz mumkin. Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yozuvchi badiiy jamlash yo’li bilan ham prototip asosida badiiy obraz yaratish imkoniyatidan ham keng foydalangan.

<sup>23</sup> Ko’chimov A. 3 jild. (Publitsistika) [Matn]: nasr / - T.: »Akademnashr«, 2021. 233-bet

Natijada badiiy mukammal asarlar yaratilganki, bu asarlar yozuvchi estetik idealini bevosita aks ettira boradi.

Roman yaratilishi tarixi haqidagi bu suhbat jarayonidan O.Yoqubovning ijodiy jarayon haqidagi mulohazalarini, ilhom, tasavvur kabi ruhiy-ilohiy holatlar haqidagi qarashlarini ham anglash mumkin. Essenavis mahorati shundaki, yozuvchining ijod onlari haqidagi qaydlarni keltirish orqali badiiy ijod haqida umumiy xulosalar chiqara olgan. Ijoddagi o'ziga xos yo'l sara asarlar yaratilishi uchun sabab, tadqiqotchilar uchun muhim manba bo'lishi mumkin.